

TURLI YOSH DAVRLARIDA PSIXOLOGIK MASLAHATLAR BERISH

Mamasoliyeva Zuhraxon Toibjon qizi

Andijon viloyati Oltinko'l tumani 51- umumta'lim maktabi amaliyotchi psixologi

Iminjonova Gulshoda Hayrullo qizi

Andijon viloyati Oltinko'l tumani 21-umumta'lim maktabi amaliyotchi psixologi

Rahimova Feruzaxon Zokirjonovna

Andijon viloyati Oltinko'l tumani 20-umumta'lim amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Bolalar psixologiyasi sohasida psixologik maslahatlar berish 60 yildan ko'proq vaqt ichida xorijda rivojlanyapti.

Kalit so'zlar: psixologiya, psixik taraqqiyot, bandlik, layoqat, yosh davrlari

KIRISH

Rus psixologiyasida bola psixik taraqqiyotini doimiy nazorat qilish zarurligi XX asrning 20-yillaridanoq tan olindi. Hozirgi vaqtda maslahat berish amaliyoti bola tarbiyasi va psixik taraqqiyotni murakkablashtiradigan qator noto'g'ri fikrlarning kuchayganligi bilan duch kelmoqda. Ular orasida qator ijtimoiy-iqtisodiy omillarning qarama qarshi ta'sir ko'rsatishi sezilarli o'rin egallaydi. Masalan, ota onalarning, ayniqsa onalarning ishlab chiqarishda bandligi va ular ko'p hollarda o'z funksiyalarini bog'chalarga, keyinchalik maktablarga ag'darib qo'yishlari ota-onalar psixologiyasiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Oilalarning buzilishi, turli xil oilaviy nizolar ham bola psixikasiga salbiy ta'sirini o'tkazib kelmoqda. Xilma -xil psixologik muammolar manbalari ichida maktab ham muhim o'rin egallaydi. Misol uchun tibbiyot mezonlariga qaraganda maktab yoshidagi bolalarning 15-20 foizi qisqa muddatli yoki doimiy psixoterapiyaga muhtojdir.

Maktabda keng tarqalgan psixologik muammolar juda ko'p: o'quv motivatsiyasining yo'qligi, past o'zlashtirish, o'qituvchilar va tengdoshlari bilan nizoli munosabatlar, o'z-o'zini past baholash, jamiyatga qarama-qarshi guruhlarda ishtirok etishga layoqatlilik va boshqalar. Hozirgi sanab o'tilgan muammolarning kelib chiqishiga ko'pchilik maktablarda o'quvchilarning ehtiyoj va sharoitini hisobga olmaslik va barchaga bir hil talab qo'yishlik, psixologik va psixofiziologik xususiyatlarini e'tiborga olmaslik sabab bo'lmoqda. Psixologik maslahat berishda avvalo, yosh davrlarini hisobga olgan holda

psixologik xizmatga yondashish zarur. Yosh davrlar psixologiyasi turli yoshda turlicha diagnostika va turlicha korreksion ishlarni talab etadi. Shaxs psixikasi yosh ko'rsatkichi o'zgargan sayin o'zgarib boradi. Emiziklik yoshda (1 oylikdan 1 yoshgacha) va erta bolalikda (1-3 yoshda) psixika normal rivojlanishi uchun bola bilan onaning yaqin munosabati muhim ahamiyat kasb etadi. Boshida muloqot jismoniy (silash, erkalash va b) kechadi. Keyinchalik uni hissiy muloqot to'ldiradi. Bolani yaxshi ko'rish va buni doim bildirib turish zarur. Bunday munosabatning yo'qligi bolada psixika buzilishiga olib keladi.

Bolalikning 3-6 yoshlik davrida psixika rivojlanishning keyingi bosqichiga o'tadi. Bolaning „men“i rivojlanadi. Mazkur davrda bola psixikasining rivojlanish xususiyatlari individual tarbiyaviy muhit mavjud bo'lishini talab qiladi.

Erta o'smirlik davri ruxiy-psixologik krizis bilan ustma-ust tushadi. O'smirlik davri insonni bolalikdan -yoshlikka o'tuvchi va o'z navbatida boshqa davrlardan o'zining nisbatan keskinroq, murakkabroq kechishi bilan farqlanib turadi. Bu davr taxminan bolalarning 5-8 sinflarda o'qish paytlariga to'g'ri keladi va 11-12 yoshdan 14-15 yoshgacha bo'lgan davr oralig'ida kechadi. Ayrim bolalarda bu davr 1-2 yil ertaroq yoki kechroq kuzatilishi ham mumkin. O'smir qiz va yigitlarning bo'yining o'sishi, vaznning ortishi, ko'krak qafasining kengayishi - bularning barchasi jismoniy rivojlanishning o'smirlik yoshiga xos xususiyatlaridir. Shu tufayli o'smirning tashqi ko'rinishi bolaning tashqi ko'rinishiga qaraganda farq qiladi: tana proporsiyasi kattalarga hos ko'rinishga ega bo'ladi. Shuningdek, o'smirning yuz tuzilishi ham o'zgarib, bosh suyagining yuz qismi jadal rivojlana boradi. O'smirlik yoshida umurtqa pog'onasining o'sishi, bo'yning o'sish tempidan orqada qoladi. Umurtqa rivojlanishi buzilishi 11-15 yoshlarga to'g'ri keladi. Shuning uchun ayni o'smir yigit va qizlarda gavdaning egilibroq yurishi, gormonal o'zgarishlar hisobiga yuzga turli toshmalarning chiqishi, qo'l va oyoqlarning uzunligi kuzatiladi. O'mir bola juda tasirchan va qiziqqon bo'lib qolganligi sabablik ularning ko'rinishlaridan gapirmaslik faqat ijobiy fikrlarni aytish o'rinlidir. Zero: bolalik davrida farzandizga qul bo'ling, ular podshox misolidir, keksalikda ular sizga qul bo'lishadi, ya'ni sizning hizmatingizda bo'lishadi. O'smirlik davrida esa farzandingizga „do'st“ bo'lingki u siz bilan maslahat qilsin. Shu davrda bolaga etibor bermasangiz u ikkinchi egosini ya'ni ikkinchi „men“ini

boshqalardan qidirib ketadi.O'smirning yurish turishidan doim habardor bo'lay desangiz u bilan do'stlarcha munosabatda bo'ling!

O'spirinlik davr 15-20 yosh oraliq davr hisoblanadi.Rivojlanishning bu davrida shaxs o'zini katta yoshli odamdek tutadi.Ba'zan ularni tushunmay qolish mumkin.Ushbu davrda ham ularga ehtiyotkorona va xurmat bilan munosabatda bo'lish ayniqsa muhim. Shuningdek 19-29 yosh davri ijtimoiy-psixologik va shaxsiy jihatdan o'zini namoyon qilish davridir.Kasbiy va shaxsiy nuqtai nazardan mustaqillik hamda katta mehnat darajasi sezilarli oshadi.Psixologlarning takidlashicha aynan shu davr shaxsning kelajagi va mavqeini belgilab berar ekan.Yahshi kasbni egallash,rahbarlik maqomiga erishishning eng gullagan davridir.

Shubxasiz,yosh o'zgarishlari shaxsning individual xususiyatlariga ta'sir ko'rsatadi.Shuning uchun ham psixologik maslaxat olmoqchi bo'lgan patsent(mijoz)imizga avvalo uning yosh jihatiga e'tibor berib treninglarni qo'llash darkor.Bonobarin,xozirgi paytda emotsional stresslardan ximoyalanish yanada murakkablashmoqda,shuning uchun individual darajada shug'ullanish maqsadga muvofiqdir.

Maktab psixologi individual maslahat berishning muhim amaliy qismi sifatida L.S.Vigotskiy psixologik-pedagogik tavsiyalar berishni ko'zda tutadi.Tavsiyanomalar tuzishda maslahat so'rab murojat qilgan o'qituvchiga yoki ota-onaga ulardan olingan ma'lumotni mavxum ,noaniq va tushunarsiz ,mazmunsiz qilib o'zlariga qaytarishdan saqlanish kerak.Shunday qilib bola taraqqiyotining yosh-psixologik xarakteristikasini quyidagi 3 asosiy tarkibiy qismlarni tahlil qilib,hosil qilish mumkin:

1) Taraqqiyot ijtimoiy vaziyatini:kimlar bilan gaplashadi,oilada kattalar bilan va tengdoshlar bilan o'zaro munosabat xarakteri mosligi.

2) Berilgan yosh uchun muhim faoliyat turining taraqqiyoti darajasi : o'yin,o'qish,rasm chizish va boshqalar,yosh normalariga mosligi.

3) O'z-o'zini anglash bola psixik taraqqiyotining bilish va shaxsiy hissiy sohalarida berilgan yoshga mansub o'zgarishlarni aniqlash.Lekin bu tavsiyanoma bola umumiy taraqqiyotining ilgarigi o'sishisiz yetarli emas,shuning uchun uning tarixiy taraqqiyotiga katta e'tibor berish kerak.Bolalar psixologi o'z ishida o'qituvchilar,patopsixologlar,psixoterapevtlar yoki defektologlar bilan hamkotlikda

ishlab, o'zining maslahat berish vazifalarini bajarishi krtak. Ular bola tarbiyasi va taraqqiyot sharoitlarini har tomonlama tahlil qilish ,uning shaxsi va bilish faoliyatida yosh va individual hususiyatlarini aniqlash ,shartli-variantli oldindan aytib berishlarini tuzish va psixologik-pedagogik tavsiyanomalar tuzish bilan bog'liqdir. Biz yuqorida takidlab o'tganimizdek, barcha yosh davrlarning oziga hos hususiyatlari mavjud. Eng murakkab yosh davrlari albatta maktab yoshiga tog'ri keladi. Maktab yoshinig ayni osmirlik davri va ospirinlik davrida oquvchini qiziqishi, ehtiyoji, qobiliyatini aniqlay olish esa zimmamizda turgan rng asosiy vazifamizdir. Zero kelajagimiz shu yoshlarning qolidadir! Agar biz ularni biror kasbga qiziqтира olsak, yonaltira olsak biz oz maqsadimizga erishgan bo'lamiz.

Shu o'rinda qiziqish ,ehtiyoj, qobiliyatlarning o'zi bilan tanishib chiqsak.

Qiziqish shaxsning muhim psixologik jabhalaridan hisoblanib, unda bevosita insonning individual hususiyati mujassamlashgan boladi.

Qiziqish-insonlatning dunyoqarashi, etiqodlari, ideallari, ya'ni uning oliy maqsadlari, ezgu niyyatlari, orzu umidlari bo'lib, uning shakllanishida bevosita muhim ro'l o'ynaydi hamda ularning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlash uchun xizmat qiladi. O'quvchining qiziqishlarini aniqlashda avvalo qiziqishning bolada namoyon bo'lishini aniqlashimiz kerak. Dastlabki ko'rinishi sodda qilib tushunturilganda bolaning qiziqishi atrofdagi odamlar tomonidan anglab yetilishi va tushunilishidir. Qiziqishning namoyon bo'lishi faqatgina aqliy salohiyat va intellektdan tashkil topgan deb bo'lmaydi. Shuning uchun qiziqishlarning bolada namoyon bo'lishida uning his tuygulari, emotsional holaylari , kayfiyatlari muhim ro'l oynaydi. Qiziqishlarning uchinchi ko'rinishi- bu uning iroda sifatlaridir ya'ni muayyan qaror bo'yicha intilish, bazi qiyinchiliklarni yengish, mustaqilligini namoyon qilish qiziqishni qaror toptiradi, shaxsni maqsad sari yetaklaydi.

Qiziqishning shaxsda namoyon bo'lishining to'rtinchi ko'rinishi- bu uning oliy nerv faoliyati xususiyatlari va temperament tiplari bilan birga ,mujassamlashgan holda namoyon bo'lishidir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yosh davrlar psixologiyasi fani, yosh davr hususiyatlari qonuniyatlari shuning uchun alohida qayt etilgan bolib, shahxslar aro munosabatda ham

katta ahamiyatga egadir. Yosh hususiyatlari , harakteri, qiziqish va vazziyatlar turli yoshda ,turli namoyon bo'ladi. Bunga chuqur e'tibor qaratish va inobatga olish darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. „Psixologiya ". E.G'.G'oziyev. „O'qituvchi" nashriyot .Toshkent -2011
- 2.„Psixodiagnostika asoslari". Yo.Yusupova. O'quv- uslubiy qollanma. Andijon- 2012.
- 3.„ Oila psixologiyasi" .G'B.Shoumarov,I.O.Xaydarov, N,A,Soginov, F.A.Akromova, G.Solihova,G.Niyozmetova
- 4.„Pedagogika nazariyasi va tarixi" .Y.Tursunov... Toshkent „O'qituvchi " 1997